



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI EKOLOGIYA, ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH VA IQLIM O'ZGARISHI VAZIRLIGI HAY'AT YIG'ILISHI BAYONI

2024-yil 18-oktabr

№ 1

Toshkent sh

Hay'at raisi O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri A. Abduxakimov

Ishtirok etdilar: O. Qudratov, J. Kazbekov, I. Qutbiddinov, U. Shadiyev, N. Bakirov, Sh. Xabibullayev

Qatnashganlar:

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi Hay'ati a'zolari, vazirlik markaziy apparatining tarkibiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari rahbarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar ekologiya boshqarmalari boshliqlari (*ro'yxat bo'yicha*)

Hay'at raisi kun tartibiga kiritilgan masala bilan Hay'at yig'ilishi qatnashchilarini tanishtirdi va muhokamaga qo'ydi. Yig'ilish kun tartibi va ish reglamenti Hay'at a'zolari tomonidan to'liq ovoz bilan tasdiqlandi.

I. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi Hay'ati faoliyatini tashkil etish to'g'risida

(Abduxakimov, Qudratov, Kazbekov, Qutbiddinov, Shadiyev, Bakirov, Xabibullayev, Abduxakimov)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi Hay'ati a'zolari tarkibini tasdiqlash to'g'risida" 2024-yil 10-oktabrdagi 659-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Hay'at yig'ilishi

Qaror qildi:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi

Gidrometeorologiya xizmati agentligi

Hay'ati a'zolari tarkibini tasdiqlash to'g'risida" 2024-yil 10-oktabrdagi 659-son qarori bilan vazirlik Hay'ati to'qqiz a'zodan iborat tarkibda tasdiqlanganligi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi Hay'ati majlislariga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish tartibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Vazir o'rindbosarlari, Vazir kotibi (Jumanov), Strategik rejalashtirish, metodologiya va tarkibiy bo'linmalar faoliyatini muvofiqlashtirish yig'ma axborot-tahlil boshqarmasi (Qurbanov) vazirlik Hay'ati yig'ilishlarini samarali tashkil etilishi, shuningdek, vazirlik markaziy apparati tarkibiy tuzilmalari, hududiy bo'linmalar hamda tizim tashkilotlari rahbarlari Hay'at yig'ilishi materiallarini sifatli va o'z vaqtida tayyorlash uchun shaxsan mas'ul ekanliklari **belgilab qo'yilsin.**

4. Strategik rejalashtirish, metodologiya va tarkibiy bo'linmalar faoliyatini muvofiqlashtirish yig'ma axborot-tahlil boshqarmasi boshlig'i Sh. Qurbanov **Hay'at mas'ul kotibi etib tayinlansin.**

5. Ushbu Hay'at yig'ilishi qarorining ijrosini tashkil qilish vazir o'rindbosarlari O. Qudratov, J. Kazbekov va I. Qutbiddinov zimmasiga yuklatilsin.

II. Vazirlik tizimida 2024-yilning 9 oylik yakunlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumat hujjatlari bilan joriy yilga belgilangan prognoz ko'rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini belgilangan muddatlarda, to'laqonli va sifatli ta'minlash yuzasidan barcha darajadagi rahbar va mutaxassislarning shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish bilan bog'liq chora-tadbirlar to'g'risida

(Abduxakimov, Qudratov, Kazbekov, Qutbiddinov, Shadiyev, Bakirov, Xabibullayev, Abduxakimov)

Kun tartibidagi masala bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri A. Abduxakimov vazirning birinchi o'rindbosari O. Qudratov, vazir o'rindbosarlari J. Kazbekov, I. Qutbiddinovlar tomonidan taqdim etilgan axborot va ma'lumotlarni tinglab, Hay'at a'zolari tomonidan bildirilgan taklif va fikr-mulohazalarni muhokama etib, qayd etilgan xatokamchiliklar va qoloqliklarni zudlik bilan bartaraf etish, o'z yechimini kutayotgan mavjud muammolarni hal qilish, ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan "Yashil makon" umummiliy loyihasini samarali tashkil etish, atrof-muhitga chiqarilayotgan ifloslantiruvchi moddalar miqdorini kamaytirish, davlat ekologik nazoratini tashkil etish, o'rmonlar maydonini kengaytirish, xavfli gidrometeorologik hodisalar to'g'risida barvaqt ogohlantirishlar darajasini oshirish, respublikada tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyoohlar sonini oshirish hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hujjatlari bilan 2024-yilga belgilangan prognoz ko'rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini so'zsiz

ta'minlash bo'yicha boshqaruvning barcha darajadagi rahbar va mutaxassislarining shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish maqsadida Hay'at yig'ilishi

Qaror qildi:

1. Vazir o'rribbosarlari, Turizm qo'mitasi raisi, O'rmon xo'jaligi agentligi direktori, Gidrometeorologiya xizmati agentligi direktori, Vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari, tizim tashkilotlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar ekologiya boshqarmalari rahbarlarining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hujjatlari bilan 2024-yilga belgilangan prognoz ko'rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini ta'minlash borasida 2024-yilning yilning 9 oyligi davomida amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi axborotlari **ma'lumot uchun qabul qilinsin.**

2. Vazir o'rribbosarlari (Qudratov, Kazbekov, Qutbiddinov), **Turizm qo'mitasi** (Shadiyev), **O'rmon xo'jaligi agentligi** (Bakirov), **Gidrometeorologiya xizmati agentligi** (Xabibullayev) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumat hujjatlari bilan 2024-yilga belgilangan prognoz ko'rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini **2024-yil 20-dekabrga qadar ta'minlash choralarini ko'rsin.**

3. Vazirning birinchi o'rribbosari (Qudratov) joriy yil yakuniga qadar:

"Yashilloyiha" loyihalash instituti (Xakimov) bilan birgalikda "Yashil makon" ummummilliy loyihasining kuzgi mavsumi doirasida 80 mln tup daraxt va buta ko'chatlarini ekish;

sanoat korxonalari atrofiga 4,7 mln tup daraxt va buta ko'chatlarini ekish orqali "yashil belbog'"lar barpo etish;

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar departamenti (Akramxujaev) bilan birgalikda Namangan viloyatidagi "Pop" milliy tabiat bog'i hududini jami 42856,0 hektarga kengaytirish va maydoni 23888,0 hektar bo'lgan "Farg'ona" milliy tabiat bog'ini tashkil etish;

Davlat kadastrini yuritish va geoaxborot tizimlarini joriy etish bo'limi (Xurramov) bilan birgalikda 14 ta yer usti tabiiy suv obyektlarining suvni muhofaza qilish zonalarini, shu jumladan sohil bo'yi mintaqalarini belgilash, Buxoro va Jizzax viloyatlaridagi hayvonlar va Namangan, Farg'ona va Andijon viloyatlarining o'simliklarning davlat ro'yxati va kadastrini yaratish choralarini ko'rsin.

4. Vazir o'rribbosari (Kazbekov) joriy yil yakuniga qadar:

Atrof-muhit monitoringi, iqlim o'zgarishiga moslashish va gidrometeorologiya sohasini muvofiqlashtirish bo'limi (Haytboyev) bilan birgalikda xo'jalik yurituvchi subyektlarning 2 200 ta atrof-muhitni ifoslantiruvchi manbalarida ekologik monitoring o'tkazish;

Atmosfera havosi muhofazasini ta'minlash bo'limi (Xodjabekova) bilan birgalikda "Toza havo" oyligi davomida 200 ming ta avtotransport vositasini ekologik nazoratdan o'tkazish;

19 ta yirik sanoat korxonasida chang-gaz tutib qolish uskunalarini o'rnatish va mavjudlarini modernizatsiya qilish ishlarini tashkil etish;

Toshkent shahrida har oyning to'rtinchi chorshanba kuni "Avtomobilsiz kun" jamoatchilik loyihasi amalga oshirish **choralarini ko'rsin**.

5. Vazir o'rribbosari (Qutbiddinov) joriy yil yakuniga qadar:

Suv, yer resurslari va yer osti boyliklarini muhofaza qilish bo'limi (Jurayev) bilan birgalikda 38 ta korxonada lokal oqova suv tozalash inshootlarini qurish va mavjudlarini rekonstruksiya qilish ishlarini tashkil qilish;

foydali qazilmalarni qazib olish natijasida buzilgan 900 hektar yer maydonlarini rekultivatsiya qilish;

Davlat-xususiy sheriklik va maishiy chiqindilar boshqaruvini takomillashtirish boshqarmasi (Abdullayev) bilan birgalikda chiqindi poligonlarining 33 tasini rekultivatsiya qilish, sanitariya-ekologik talablariga javob bermaydigan va to'lgan 27 ta chiqindi poligonlari faoliyati belgilangan tartibda to'xtatish;

8 ta chiqindilarni qayta yuklash stansiyasini qurish hamda 37 ta chiqindi poligonlarini zamonaviy infratuzilmalar, qurilmalar va maxsus texnika vositalari bilan ta'minlash;

"Clean city" billing tizimini "Hududiy elektr tarmoqlari" AJning axborot tizimi bilan to'liq integratsiya qilish **choralarini ko'rsin**.

6. Turizm qo'mitasi (Shadiyev) joriy yil yakuniga qadar:

xorijiy sayyoohlarning hududlarga tashrifini 11 mln nafarga yetkazish;

turizm xizmatlari eksportini 2,7 mlrd dollarga yetkazish;

160 ta mehmonxona, 300 ta oilaviy mehmon uyi faoliyatini yo'lga qo'yish, 80 ta turoperator va turagent tashkil etish **choralarini ko'rsin**.

7. O'rmon xo'jaligi agentligi (Bakirov) joriy yil yakuniga qadar:

O'rmon xo'jaliklari tomonidan foydalanimayotgan 7 ming hektar yer maydonlarini o'zlashtirish hamda respublikaning o'rmon bilan qoplanganlik darajasini 8,1 foiz (3 mln 650 ming hektar)ga yetkazish;

respublikaning tuman va shaharlari 347 hektar maydonlarida 134 ta "yashil bog'lar" barpo etish **choralarini ko'rsin**.

8. Gidrometeorologiya xizmati agentligi (Xabibullayev) joriy yil yakuniga qadar agrometeorologik prognozlar sifatini yaxshilash maqsadida Qashqadaryo viloyati hududida "Mirishkor", "Koson", "Nishon" va "Qamashi" agrometeorologik stansiya va postlari faoliyatini yo'lga qo'yish **choralarini ko'rsin**.

9. Ushbu Hay'at yig'ilishi qarorining ijrosini tashkil qilish vazir o'rribbosarlari J. Kazbekov, I. Qutbiddinov hamda uni nazorat qilish vazirning birinchi o'rribbosari O. Qudratov zimmasiga yuklatilsin.

III. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldag‘i PF-6166-son Farmoni hamda 2021-yil 31-maydag‘i PQ-5132-son qarori talablari asosida “app.ijro.uz” tizimida qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosi to‘g‘risida

(Abduxakimov, Qudratov, Kazbekov, Qutbiddinov, Shadiyev, Bakirov, Xabibullayev, Abduxakimov)

Yig‘ilish **kun tartibidagi masala** yuzasidan joriy yilning oktabr oyida “app.ijro.uz” tizimida O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror, farmoyish hamda bayonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi hujjatlarida bajarilishi belgilangan topshiriqlar ijrosining borishi muhokama qilinib qayd etilgan xatokamchiliklar va qoloqliklarni zudlik bilan bartaraf etish, o‘z yechimini kutayotgan mavjud muammolarni hal qilish maqsadida Hay‘at yig‘ilishi

Qaror qildi:

1. Vazir o‘rinbosarlari, vazirlik markaziy apparatining tarkibiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari rahbarlari topshiriqlar ijrosini uchta asosiy prinsip, ya’ni **amaliy tizimni joriy etish, ta’sirchan tartibni belgilash va ijo intizomini mustahkamlash** tartib-qoidalari asosida tasdiqlangan **kalendar-grafik** va “**Yo‘l xarita**”lariga muvofiq so‘zsiz ta’minlash yuzasidan shaxsan javobgar ekanliklari belgilab qo‘yilsin.

2. Ekoturizm va ovchilikni rivojlantirish departamenti (O.Babamuradov) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-iyuldagi “Respublikada ov qilish va ovchilik xo‘jaliklari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” **PF-105-son** Farmoni **5a, 6.1-6.7-bandlari** ijrosi yuzasidan bajarilgan ishlar yakunlari bo‘yicha umumlashtirilgan ma’lumotlarni **uch kun muddatda** tizimga kirtsin va vakolatli organlarda topshiriqlarni nazoratdan olish yuzasidan tezkor choralarini ko‘rsin.

3. Turizm qo‘mitasi (U.Shadiev) Adliya vazirligi bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi “Turizm yo‘nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” **PQ-238-sonli** qarori **1.2, 2.1-2.3- bandlari** (*ma’lumot uchun qabul qilingan*) ijo muddatlarini keyingi muddatlarga muvofiqlashtirish choralarini ko‘rsin.

4. Atrof muhit monitoringi, iqlim o‘zgarishiga moslashish va gidrometeorologiya sohasini muvofiqlashtirish bo‘limi (V.Hayboev) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydag‘i **PF-81-son** Farmoni **8.5-8.6-bandlarida** ko‘zda tutilgan topshiriqlarning ijo muddatlarini

muvofiglashtirish bo'yicha **bir kun muddatda** asoslangan takliflarni tayyorlasin va takliflarni Adliya vazirligi bilan kelishilishini ta'minlasin.

5. Vazirlik markaziy apparatining tarkibiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari rahbarlari:

ijro muddati oktabr yakuniga qadar belgilangan barcha topshiriqlar ijrosini tasdiqlangan **kalendar-grafik** asosida to'liq va sifatli ta'minlab, tizimga ijrosi to'g'risidagi asoslantirilgan ma'lumotlarni kiritish choralarini ko'rsin;

topshiriqlar ijrosi yuzasidan tizimga kiritilgan **asoslantiruvchi hujjatlar** va **ma'lumotlarni** Adliya vazirligi, Vazirlar Mahkamasi va Hisob palatasida himoyasini ta'minlagan holda topshiriqlarni "**app.ijro.uz**" tizimida nazoratdan olish choralarini ko'rsin;

normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ishlab chiqilishi ko'zda tutilgan topshiriqlar ijrosining holati to'g'risida Nazorat, ijro intizomi va murojaatlarni ko'rib chiqish bo'limiga kunlik asosda ma'lumot kiritib borsin;

joriy oy yakuniga qadar topshiriqlar ijrosini ta'minlamagan mas'ullarga nisbatan **intizomiy choralar ko'riliishi to'g'risida ogohlantirilsin.**

6. Nazorat, ijro intizomi va murojaatlarni ko'rib chiqish bo'limi (F.Xusainov):

bir hafta muddatda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi bo'yicha ijro muddati 2024-yilning noyabr oyiga belgilangan nazoratdagi topshiriqlarning **manzilli jadvalini** shakllantirib, ijrochilarga yetkazsin;

"**app.ijro.uz**" elektron hujjat aylanishi tizimida nazoratga olingan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Vazirlar Mahkamasi topshiriqlari, shuningdek, vazirlik va idoralardan kelib tushgan topshiriqlar ijrosi ta'minlanishi yuzasidan rahbariyat huzurida **haftaning har dushanba va juma kunlari** muhokama tashkillashtirsin.

7. Ushbu Hay'at yig'ilishi qarorining ijrosini uni nazorat qilish vazirning birinchi o'rnbosari O. Qudratov zimmasiga yuklatilsin.

IV. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining Ekologiya jamg'armasi Kengashi faoliyatini tashkil etish to'g'risida

(Abduxakimov, Qudratov, Kazbekov, Qutbiddinov, Shadiyev, Bakirov, Xabibullayev, Abduxakimov)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida" 2017-yil 15-iyundagi 375-sod qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Hay'at yig'ilishi

Qaror qildi:

- 1.** Tushumlarni monitoring qilish va unduruvga qaratish bo‘limi boshlig‘i G. Korobayev va Moliya-iqtisod boshqarmasi boshlig‘i X. Mamasoliyevning 2024-yilning yilning 9 oyi davomida Ekologiya jamg‘armasi faoliyati to‘g‘risidagi axborotlari **ma’lumot uchun qabul qilinsin.**
- 2.** O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining Ekologiya jamg‘armasi Kengashi tarkibi **2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.**
- 3.** Ushbu Hay’at yig‘ilishi qarorining ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rindbosari O. Qudratov zimmasiga yuklatilsin.

Hay’at raisi



A. Abduxakimov

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish
va iqlim o'zgarishi vazirligi Hay'atining
2024-yil "18" oktabrdagi 1-son
bayoniga
1-ilova

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi Hay'ati majlislariga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish tartibi

1. Umumiy qoidalar

1. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi (keyingi o'rnlarda – Vazirlik) Hay'ati a'zolarining soni va tarkibi vazirlik tomonidan kiritilgan normativ-huquqiy hujjat loyihasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tasdiqlanadi.
2. Vazirlik Hay'ati (keyingi o'rnlarda – Hay'at) doimiy faoliyat ko'rsatadigan maslahat organi hisoblanadi.
3. Hay'at o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvi organlari to'g'risidagi nizomlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga amal qiladi.
4. Hay'at o'z faoliyatini qonunchilikka muvofiq qonuniylik, nazoratda bo'lish va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisobot berish, boshqaruv va kollegiallikni markazlashtirish tamoyillari asosida amalga oshiradi.

2. Hay'atning asosiy vazifalari

5. Hay'at vazifalariga quyidagilar kiradi:

vazirlik faoliyatining asosiy yo'nalishlarini tayyorlash va amalga oshirish;

tarkibiy va hududiy bo'linmalar, idoraviy mansub tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarining tizimli asosda eshitib borilishini tashkil etish, qonunchilik, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujatlari va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlarida belgilangan vazifalarning o'z vaqtida hamda sifatli amalga oshirilishini ta'minlash yuzasidan vazirlik tizimi rahbarlari va xodimlarining shaxsiy javobgarligini oshirish choralarini ko'rish;

vazirlik faoliyatiga oid hududiy va tarmoq dasturlarini amalga oshirish samaradorligini har chorakda va tizimli ko'rib chiqish;

hay'atning kengaytirilgan ko'chma yig'ilishlarini o'tkazish, vazirlik sohasi dolzarb masalalarining joylarda muhokama etilishini ta'minlash;

vazirlik markaziy apparati va uning tizimidagi lavozimlar nomenklaturasini ko'rib chiqish hamda tasdiqlash;

vazirlik nomenklaturasiga kiradigan lavozimlarga kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish masalasini ko'rib chiqish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va topshiriqlarida belgilangan vazifalarning o'z vaqtida hamda sifatli amalga oshirilishini ta'minlash uchun vazirlik rahbarlari va xodimlarining ijro intizomini mustahkamlash hamda shaxsiy javobgarligini oshirish;

O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga kiritiladigan va vazirlik mas'ul ijro etuvchi organ hisoblangan qonun loyihalari bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish.

6. Hay'at vazirlik vakolatiga kiradigan va kollegial muhokama etishni talab qiladigan har qanday masalani ko'rib chiqish huquqiga ega.

3. Hay'at yig'ilishlariga masalalarni tayyorlash

7. Hay'at yig'ilishlarida ko'rib chiqish uchun masalalarni tayyorlash jarayoni muammo mohiyatini chuqur va har tomonlama tahlil qilish, avval qabul qilingan boshqaruv qarorlari va ularni amalga oshirish tadbirlari samaradorligini baholash, kamchiliklarni, ularning yuzaga kelishiga sabab bo'ladigan sharoitlar va sabablarni aniqlash, ishlarning holatini yaxshilashga qaratilgan takliflarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish bo'yicha taxmin qilinayotgan natijalarni o'z ichiga olishi darkor.

Zarur holatlarda ko'rib chiqiladigan muammo yuzasidan ishlar holatini bevosita vazirlik bo'linmalari, uning hududiy organlari va muassasalarida oldindan tekshirish tashkil etiladi.

8. Ijro etuvchi bo'linma Hay'at yig'ilishlari rejasidan ko'chirma olganidan so'ng 10 kun muddatda hay'at yig'ilishlariga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha tadbirlar rejasini tuzadi va masalalarni tayyorlash uchun mas'ul shaxslarga tasdiqlatadi, nusxasini vazirlikning rejani amalga oshirishda ishtirok etadigan bo'linmalariga yuboradi.

9. Hay'at yig'ilishlariga muhokama etiladigan masala yuzasidan quyidagi materiallar tayyorlanadi:

muhokama etiladigan masala bo'yicha ma'lumotnoma;

Hay'at qarorlari va vazirlikning ularni amalga oshirish to'g'risidagi buyrug'i (qarori) yoki Hay'atning protokol qarori hamda hay'at yig'ilishlarida ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan boshqa hujjatlar loyihalari;

zarur bo'lganda, hujjatlar loyihalari bo'yicha mavjud kelishmovchiliklar to'g'risida ma'lumotnoma va loyihani tayyorlash hamda kelishish davomida bildirilgan fikr-mulohazalar va takliflarni amalga oshirish rad etilganini asoslash;

hay'at yig'ilishiga taklif etilgan shaxslar ro'yxati;

hay'at yig'ilishida so'zga chiqadigan shaxslar ro'yxati;

hay'at raisining ko'rsatmasiga binoan boshqa hujjatlar.

10. Ma'lumotnoma ko'rib chiqiladigan masala mohiyatining qisqacha va obyektiv bayonini, ushbu yo'nalishdagi ishlarda mavjud kamchiliklarni, ularning sabablari va kamchiliklarni bartaraf etish borasidagi muammolar va takliflarni o'z ichiga olishi kerak.

Faoliyatni takomillashtirishga doir taklif etiladigan chora-tadbirlar, odatda, kompleks xususiyatga bo'lishi zarur.

11. Hay'at qarorlari va ularni amalga oshirish bo'yicha buyruqlar (qarorlar) loyihalari belgilangan tartibda kelishiladi.

Yig'ilish chaqirilmasdan hay'at a'zolari o'rtasida so'rov o'tkazish orqali qabul qilinadigan hujjatlar loyihalari hay'atning barcha a'zolari bilan kelishiladi va imzolanadi.

12. Barcha materiallar ijro etuvchi bo'linma rahbari, masalalarni tayyorlash uchun mas'ul shaxslar va vazirning tegishli yo'nalishdagi faoliyatga rahbarlik qiladigan o'rinnbosari bilan kelishiladi hamda imzolanadi.

Hay'at qarorlari va ularni amalga oshirish bo'yicha buyruqlar (qarorlar) loyihalari vazirning ularni tayyorlashda ishtirok etgan va manfaatlari e'tiborga olingan tarkibiy bo'linmalari rahbarlari tomonidan ham imzolanadi.

13. Belgilangan tartibda kelishilgan materiallar Hay'at mas'ul kotibiga mazkur materiallarni tayyorlash rejasida belgilangan muddatlarga muvofiq, ammo masala ko'rib chiqish rejalashtirilgan oyning 5-sanasidan kechiktirmasdan taqdim etiladi.

14. Qo'yilgan talablar buzilgan holatda tayyorlangan yoki to'liq hajmda taqdim etilmagan materiallarni Hay'at mas'ul kotibi qabul qilmaydi. Olingan materiallar ijro etuvchi bo'linmalarga kamchiliklarni bartaraf etish uchun qaytarib berilishi mumkin va bu haqda vazirlikning tashkiliy-nazorat bo'linmasi rahbari hamda masalalarni tayyorlash uchun mas'ul shaxsga axborot beriladi.

15. Hay'at materiallari biron-bir sabab tufayli belgilangan muddatda taqdim etilmasa yoki masalalarni tayyorlash uchun mas'ul shaxsning fikricha uni ko'rib chiqish zarurati bo'lmasa, bu haqda Hay'at raisiga yozma ravishda axborot beriladi.

16. Mukammal ishlab chiqilmagan masalalar hay'at raisining ko'rsatmasi yoki Hay'at qarori bilan muhokamadan olib tashlanadi va materiallar ijro etuvchiga mukammal ishlab chiqish uchun qaytariladi.

17. Ijro etuvchi bo'linmalar rahbarlari va masalalarni tayyorlash uchun mas'ul shaxslar materialni sifatli ishlab chiqish, materiallar loyihalarining o'z vaqtida taqdim etilishi va ulardagi ma'lumotlar ishonchliligi uchun javob beradi.

18. Hay'at yig'ilishida ko'rib chiqiladigan masalalarni o'rganish, hay'at qarorlari loyihalari va boshqa materiallarni tayyorlash yoki mukammal ishlab chiqish, shuningdek qabul qilingan qarorlar ijrosini tekshirish uchun vaqtinchalik komissiyalar va ishchi guruhlar tashkil etilishi mumkin. Ularning faoliyati natijalari

yuzasidan Hay'atga axborot beriladi. Komissiyalar va ishchi guruhlarning alohida fikrga ega a'zolari uni hay'at a'zolari yoki raisi e'tiboriga yetkazish huquqiga ega.

4. Hay'at yig'ilishlariga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish tartibi

19. Hay'at mas'ul kotibi hay'at ish rejasiga muvofiq tayyorlangan materiallar mavjud bo'lsa, yig'ilish kun tartibi loyihasi va uning ishtirokchilari ro'yxatini shakllantiradi, vazirlikning tashkiliy-nazorat bo'linmasi rahbari bilan kelishadi.

20. Hay'at yig'ilishining kun tartibi, jumladan, yig'ilish o'tkaziladigan sana, vaqt va joy Hay'at raisi tomonidan belgilanadi.

21. Hay'at mas'ul kotibi navbatdagi yig'ilish materiallarini olgandan so'ng ularni ko'paytirish va hay'at a'zolariga, shuningdek vazirlikning manfaatdor tarkibiy bo'linmalariga tarqatilishini tashkil etadi.

Materiallar boshqalarga Hay'at raisi bilan kelishilgan holda yuboriladi.

22. Hay'at yig'ilishiga vazirlik vakolatiga kiramagan masalalar bo'yicha davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, boshqa tashkilotlar, shu jumladan ommaviy axborot vositalari rahbarlari hamda xodimlari taklif etilishi mumkin.

Hay'atning ochiq yig'ilishlariga "Davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi Qonunga muvofiq axborotdan foydalanuvchilar ham taklif etilishi mumkin. Ularning vazirlikning hay'ati ochiq yig'ilishlarida ishtirok etish tartibi, huquqlari va majburiyatlari qonunchilikda belgilanadi.

23. Hay'at yig'ilishiga taklif etiladigan davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, boshqa tashkilotlar, shu jumladan ommaviy axborot vositalari rahbarlari hamda xodimlarini Hay'at raisi tomonidan yoki uning topshirig'iga binoan tashkiliy-nazorat bo'linmasi rahbari tasdiqlagan ro'yxatga muvofiq Hay'at mas'ul kotibi xabardor qiladi.

24. Hay'at mas'ul kotibi vazirlikning hay'at yig'ilishlariga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazishda ishtirok etadigan texnik, xo'jalik hamda boshqa bo'linmalarni xabardor qilishni ta'minlaydi, ularning hamkorligini tashkil qiladi, ular tomonidan o'tkaziladigan tadbirlarni muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi.

25. Hay'at mas'ul kotibi yig'ilishdan avval ishtirokchilarni ro'yxatga oladi va ro'yxatga olish tugagandan so'ng Hay'at raisiga (raislik qiluvchiga) va vazirlikning tashkiliy-nazorat bo'linmasi rahbariga Hay'at a'zolari hamda taklif etilgan shaxslar kelgani haqida axborot beradi.

26. Hay'at yig'ilishiga taklif etilgan shaxslar o'zlariga taalluqli masalalar muhokamasida ishtirok etadi. Rais (raislik qiluvchi) qaroriga binoan ular bahsmunozaralarda so'zga chiqib, o'z fikr va takliflarini bildirishi, muhokama etilayotgan masala va tayyorlangan hujjatlar loyihalari mohiyati bo'yicha ma'lumotnomalar berishi mumkin.

27. Hay'at yig'ilishi raisi (raislik qiluvchi) yig'ilishni ochadi va yopadi, hay'at a'zolarini yig'ilishga taklif etilgan shaxslar haqida xabardor qiladi, masalalar muhokamasini tashkil qiladi (ma'ruza qilish uchun so'z beradi, reglamentga rioya etilishini kuzatadi, tayyorlangan hujjatlar loyihalarini, muhokama etilayotgan masalalar bo'yicha takliflarni ovozga qo'yadi, ovoz berish yakunlarini e'lon qiladi), masalalar, ma'lumotnomalar, arizalar va takliflarni e'lon qiladi.

28. Hay'at yig'ilishi uning kun tartibi va o'tkazish tartibini belgilash hamda tasdiqlashdan boshlanadi.

29. Ma'ruzachi uchun vaqt, odatda, 20 daqiqacha, babs-munozaralarda chiqishlar uchun 7 daqiqagacha, xabarlar va ma'lumotnomalar uchun 3 daqiqagacha belgilanadi. Zarur holatlarda rais (raislik qiluvchi) ma'ruza qilish vaqtini o'zgartirishi mumkin.

30. Hay'at yig'ilishida masalalar muhokamasi chog'ida hujjatlar loyihalari yuzasidan bildirilgan muhim fikr-mulohazalar va takliflar ko'rib chiqilishi zarur. Muhokama natijalari raislik qiluvchining ko'rsatmasiga binoan yig'ilish bayonnomasida aks ettiriladi.

31. Hay'at yig'ilishlarida videokonferensaloqa, ovozni yozish va stenogrammalash, kino, video va fotosuratga olish hay'at raisi (raislik qiluvchi) bilan kelishilgan holda yoki qarori bilan amalga oshiriladi.

32. Videokonferensaloqa, ovozni yozish va stenogrammalash, kino, video va fotosuratga olish ishlari vazirlikning tegishli bo'linmalarining kuch va vositalaridan foydalangan holda Hay'at mas'ul kotibiga yuklanadi.

33. Ma'ruzalar va nutqlar matnlari yig'ilishdan so'ng hay'at mas'ul kotibiga topshiriladi.

5. Hay'at qarorlarini qabul qilish tartibi

34. Hay'at yig'ilishda hay'at tarkibining yarmidan ko'pi ishtirok etgan taqdirda vakolatli bo'ladi.

35. Ko'rib chiqiladigan masala yuzasidan hay'at qarori ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

36. Hay'at qarorlari vazirning buyruqlari bilan amalga oshiriladi. Vazir va hay'at a'zolari o'rtasida kelishmovchilik yuzaga kelgan holatda vazirlik mustaqil qaror qabul qiladi va kelishmovchiliklar haqida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga axborot beradi. Hay'at a'zolari ham O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga o'z fikrini bildirishi mumkin.

37. Hay'at qarorlari hay'at raisi yoki uning vazifalarni bajaruvchi shaxs (raislik qiluvchi) tomonidan imzolanadi va, odatda, vazirning buyrug'i (qarori) bilan amalga oshiriladi.

38. Tashkiliy, tartib-taomil va nazorat masalalari bo'yicha hay'at qarorlari yig'ilish bayonnomasiga kiritiladi va buyruq (qaror) qabul qilinmasdan amalga

oshiriladi. Qarorlardagi ko'rsatmalar (topshiriqlar) belgilangan tartibda bajarilishi shart.

39. Ayrim holatlarda shoshilinch masalalar yuzasidan Hay'at qarorlari so'rov o'tkazish tartibida qabul qilinishi mumkin.

40. Vazirlik va boshqa kollegial organlarning qo'shma Hay'at yig'ilishlarida qabul qilingan qarorlar qo'shma buyruqlar (qarorlar) bilan e'lon qilinadi.

41. Hay'at tomonidan ko'rib chiqilgan va ma'qullangan hujjatlar loyihalari (nizomlar, yo'riqnomalar, rejalar va boshqa hujjatlar) belgilangan tartibda tasdiqlanadi va amaliyotga joriy etiladi.

6. Hay'at yig'ilishlarini hujjatlar bilan rasmiylashtirish

42. Hay'at yig'ilishi yakuni bo'yicha qisqa bayonnomada tuziladi. Bayonnomada uning tartib raqami, yig'ilish o'tkazilgan sana va joy, Hay'atga raislik qiluvchi va uning ishtirok etuvchi a'zolari, ma'ruzachilar familiyasi, tashkiliy-boshqaruvchilik xususiyatiga ega qarorlar yoki aniq topshiriqlar ko'rsatiladi. Bayonnomaga kiritilgan topshiriqlar mansabdar shaxslar (ijro etuvchi bo'linmalar) va bajarish muddatlari ko'rsatilgan holda qisqa shaklda bayon etilishi lozim.

43. Bayonnomalarni rasmiylashtirish va kelishish Hay'atning mas'ul kotibiga yuklanadi.

Bayonnomalar vazirlikning hay'at ishini tashkil etish uchun mas'ul tashkiliy-nazorat bo'linmasi rahbari tomonidan imzolanadi va zarur bo'lganda, vazirning o'rinosi, Hay'atning boshqa a'zolari, vazirlikning manfaatdor tarkibiy bo'linmalari rahbarlari bilan kelishiladi.

Bayonnomalar birinchi navbatda ko'rib chiqiladi va kelishiladi. Bayonnomalarni tayyorlash maqsadida vazirlikning manfaatdor bo'linmalari jalb etilishi mumkin.

44. Bayonnomalar hay'at raisi (raislik qiluvchi) tomonidan imzolanadi va mas'ul kotib tomonidan tasdiqlanadi.

45. Bayonnomalarga ishtirokchilarning yozma ma'ruzalari va nutqlari, boshqa materiallar, rais (raislik qiluvchi) buyrug'i yoki hay'at qarori bo'yicha yig'ilishlar stenogrammalari ilova qilinishi mumkin.

46. Bayonnomalardan ko'chirmalar vazirlikning manfaatdor bo'linmalari, hududiy organlari va muassasalariga tarqatiladi.

Bayonnomalardan ko'chirmalar hay'at mas'ul kotibi tomonidan tasdiqlanadi.

7. Hay'at qarorlari va boshqa hujjatlari loyihalarini mukammal ishlab chiqish tartibi

47. Hay'at qarorlari, ularni amalga oshirish bo'yicha buyruqlar (qarorlar) va hay'at yig'ilishida ko'rib chiqilgan boshqa hujjatlari loyihalarini bevosita mukammal ishlab chiqish hamda kelishish ijro etuvchi bo'linmalarga yuklanadi. Hujjatlarni

mukammal ishlab chiqish muddatlari, odatda, agar bunday muddat alohida belgilangan bo‘lmasa, 10 kalendar kundan oshmasligi kerak.

Hujjatlar loyihalari mukammal ishlab chiqish jarayonida ularga jiddiy o‘zgartirishlar kiritilsa takroran imzolanishi lozim.

Belgilangan tartibga qo‘sishimcha ravishda mukammal ishlab chiqilgan hujjatlar loyihalari Hay’at yig‘ilishi davomida o‘z fikr-mulohazalari va takliflarini bildirgan Hay’at a’zolari bilan kelishiladi hamda ular tomonidan imzolanadi.

48. Hay’at mas’ul kotibi hujjatlar loyihalarini mukammal ishlab chiqishda, loyihalarni kelishishda ishtirok etadi, bildirilgan fikr-mulohazalar va takliflarning to‘liq bajarilishini nazorat qiladi.

49. Vazirga imzolash uchun tayyorlangan hay’at qarorlari, ularni amalga oshirish bo‘yicha buyruqlar (qarorlar) vazirlikning tashkiliy-nazorat bo‘linmasiga taqdim etiladi va bayonnomma bilan birgalikda belgilangan tartibda axborot beriladi.

8. Hay’at qarorlari bajarilishini nazorat qilish

50. Topshiriqlar mazmun-mohiyati bo‘yicha hay’at qarorlarining bajarilishini bevosita nazorat qilish ularni amalga oshirish yuzasidan mas’ul etib tayinlangan Hay’at a’zolari zimmasiga yuklanadi, shuningdek joriy ishlar jarayonida Hay’atning barcha a’zolari tomonidan amalga oshiriladi.

51. Hay’at qarorlarida belgilangan topshiriqlar ijrosi yuzasidan to‘g‘ridan to‘g‘ri nazorat Hay’at mas’ul kotibi zimmasiga yuklanadi va ularning amalga oshirilishi bo‘yicha Hay’atning protokol qarorlarida qayd etilgan topshiriqlarda ko‘rsatilgan shakl va muddatlarda vazirlikning buyrug‘i (qarori) qabul qilinadi.

52. Hay’at:

o‘z yig‘ilishlarida o‘zi qabul qilgan qarorlarning bajarilishi to‘g‘risidagi masalani muntazam ko‘rib chiqadi;

ushbu qarorlarning amalga oshirilishi uchun mas’ul shaxslar, vazirlik bo‘linmalari va uning hududiy organlari rahbarlarining bajarilgan ishlar natijalari to‘g‘risidagi axborotini eshitadi;

o‘z faoliyati yakunlarini muntazam sarhisob qilib boradi, shuningdek hay’at qarorlarini tayyorlash va amalga oshirishda uning a’zolari ishlari samaradorligini ko‘rib chiqadi.